

YOSHLAR LIDERLIGI VA UNI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI

Avazov Farhod Rahmatulloyevich

*O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari "Tinchlik yo'lida
hamkorlik" Markazi kafedra boshlig'i*

Annotatsiya: *Maqolada yoshlarda liderlik (yetakchilik) fazilatlarini rivojlantirishda oila, atrof muhit, ta'lim muassalari va jamiyatning roli ko'rib chiqiladi. Yoshlar liderligini shakllantirish va uni amalga oshirishda ijtimoiy tarmoqlar va zamonaviy media olamning ijobiy va salbiy oqibatlari, bunga qarshi kurash yo'llaring ayrim jihatlari ochib berilgan. Yoshlar yetakchiligini shakllantirishda, kattalar jamoalarining o'rni, yoshlarning davlat va fuqarolik jamiyatlarida faol pozitsiyalarni egallashda salbiy ta'sir etuvchi omillar, yoshlar liderligini shakllantirishning asosiy jihatlari, jumladan, bilimli va iqtidorli yoshlarni aniqlash va ularga liderlik xususiyatlarni rivojlantirish uchun imkoniyatlar yaratish, hamda yoshlar yetakchiligini shakllantirish va amalga oshirishning asosiy usullari tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *yoshlar liderligi, fuqarolik jamiyati, xulq-atvor, modellashtirish, ijtimoiy media, yetakchilik mahorati, ta'lim muassasalari, motivatsiya, tabiiy liderlik, liderlik inqirozi, inovatsiyalar, ijtimoiy tuzum.*

Abstract: *The article considers the role of family, environment, educational institutions and society in the development of leadership qualities in youth. The positive and negative effects of social networks and modern media in the formation and realization of youth leadership are revealed, as well as some aspects of ways to combat it. The role of adult communities in the formation of youth leadership, factors that have a negative impact on the active positions of young people in the state and civil society, the main aspects of the formation of youth leadership, including identifying educated and talented youth and creating opportunities for their leadership development, as well as the main methods of formation and realization of youth leadership.*

Keywords: *youth leadership, civil society, behavior, modeling, social media, leadership skills, educational institutions, motivation, natural leadership, leadership crisis, innovation, social order.*

Yoshlik davri – insonda liderlik poydevorini yaratish va qobiliyatini rivojlantirishning uchun eng maqbul vaqt hisoblanadi. Bu davrda har bir yosh o'zining yetakchilik salohiyatining nazariy jihatlarini o'rganadi va imkon qadar uni amaliyotda qo'llashga harakat qiladi. Yoshlar liderligini rivojlantirish dasturlari aslida kattalar liderligining ildizlarini shakllantirish va poyasini mustahkamlashga yordam beradi. Yoshlar liderligi – bu har bir yoshning jamiyatda o'z ta'sirini qo'llash usulidir. Yoshlarda dastlabki liderlik nishonlari ularning o'zini tanishdan o'z oila a'zolari yoki tengdoshlari bilan o'zaro munosabat o'rnatish va ta'sir qilish orqali quriladi.

Yoshlar liderligining konsepsiyasi har bir yoshning jamiyatdagi kelib chiqishishga moslashishi, ijtimoiy ta'sirga nisbatan shakllanishi, bir

va bir nechta shaxslar hamda guruhlarini boshqarishga bo'lgan iqtidori samarasi hisoblanadi. Bugungi kunda yoshlar yetakchiligining sust rivojlanayotganligiga sabab yoshlarning fuqarolik jamiyatining to'laqonli ishtirokchisi bo'lmayotganligidir. Bunga yoshlar va kattalar o'rtasidagi kuch

va imtiyozlar nomutanosibligining saqlanib kelayotganligi yoshlarning davlat va fuqarolik jamiyatida faol ishtirok etishiga salbiy ta'sir o'tkazmoqda.

Yoshlar yetakchiligining asosini ularning liderlik qobiliyatlarini puxta o'rganishi, rivojlantirish va uni amaliyotda qo'llashi tashkil etadi. Yoshlarda liderlik xususiyatlarini o'rganish va rivojlantirish ular hayotning dastlabki bosqichlarida boshlanadi. Jumladan, oilaviy muhit, ota-onalik uslublari, bog'cha, maktab va boshqa ta'sir etuvchi omillar har bir shaxsning erta liderlik tajribasini rivojlanishiga ularning yetakchilik qobiliyatining shakllanishiga muhim hissa qo'shadi. Ushbu davrda yoshlar o'zlarining liderlik qobiliyatlarining asosiy xususiyatlarini shakllantirib uni hayotda qo'llash jarayonini boshlaydilar. Erta bolalik davrida shaxsning liderlik ko'nikmalarini puxta o'zlashtirishi, uning kelajakdagi yetakchilik ishtirokidagi samaradorlik ishonchni oshirishga yordam beradi.

Liderlikni rivojlantirishda yoshlarda ota-onalarning roli juda muhimdir. Xususan ota-onalari transformatsion (ko'chma) liderlik xulq-atvorni namoyon etgan yoshlar, ulg'aymasdan turib jamoda o'zining yetakchilik hatti-harakatlarini namoyon qilishni boshlaydi. Ko'chma liderlik hatti-harakatlarini modellashtirish yoshlarga o'z tengdoshlari va kattalar tomonidan yanada qoniqarli, samarali

va harakatchan lider sifatida maqtovg'a sazovor bo'lishga yordam beradi. Afsuski, amalda ota-onalarning liderlik modellari har doim ham mavjud emas. Oila sharoitida malakali murabbiylar va modellarning yo'qligi yoshlarga o'z oilasidan tashqarida yetakchilik sirlarini o'rganish va uni rivojlantirishga sabab bo'ladi. Bu esa bugungi axborot texnologiyalar, ijtimoiy media va texnologik nou-xaun rivojlangan davrda yoshlar liderlikning begona va mintalitetga zid bo'lgan modellarini o'zlashtirishiga sabab bo'lmoqda.

So'nggi yillarda dunyoning ko'plab davlatlari qatorida O'zbekistonda ham yoshlarning yetakchilik mahoratini oshirish bo'yicha qator chora tadbirlar ko'rilmoqda. Bu esa davlat va fuqarolik jamiyati institutlari zimmasiga yanada mas'uliyatli vazifalarni yuklamoqda. Yoshlar yetakchiligini rivojlantirishda maktab, litsey, kollej, texnikum va boshqa ta'lim muassasalarining roli muhimdir.

Bu dargohlarda eng avvalo yoshlarda liderlik xususiyatlarini o'rgatishning zamonaviy metodiklaridan foydalanishni talab etmoqda. Ta'lim muassasalari ijtimoiy tarmoqlardagi ayrim saytlardan ko'ra yaxshi bilim va targ'ibotni amalga oshirgan taqdirdagina raqobatda ustunlikka ega bo'lishi mumkin.

Hozirgi vaqtda yoshlar yetakchiligi dasturlari katta yoshdagi siyosiy liderlar dasturlari soyasida qolib ketmoqda. Bunda kattalar ierarxik yo'nalishda provayder va

yoshlar qabul qiluvchi sifatida xizmat qiladi. Yoshlar liderligi dasturlarining kuchsizligi va amaliyotda joriy etilmasligi kattalar hokimiyatini mustahkamlab, yoshlarning qiziqishi, qarashlari, va motivatsiyani e'tiborsiz qoldirmoqda. Aslida esa yoshlar va kattalar liderlarining teng huquqlilik va jamoaviy tarzda shakllangan tizimi yoshlarning yetakchilik qobiliyatini rivojlantirishda muhim hisoblanadi. Yoshlar va kattalar liderlari hamkorligi – bu yoshlar va kattalarning muhim dasturlarni yaratish va qarorlarni qabul qilish jarayonida birgalikda (dinamik tarzda) harakatlanadigan davomiyligidir.

Kattalar tadbirlarni rejalashtirishdan to amalga oshirishgacha bo'lgan davrda yoshlar bilan mas'uliyatni teng taqsimlashi, shuningdek tadbirlarni amalga oshirishda yoshlar bilan keng hamkorligini saqlashi yoshlarning liderlik mahoratini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Agar tadbirlarda kattalar va yoshlar o'rtasidagi kuch nomutanosibligi kattalar foydasiga saqlanib qolsa u holda yoshlar uchun liderlikni o'rganish jarayonlari yo nazariy yoki amaliy jihatlardan cheklangan qoladi.

Yoshlar liderligini oshirishning yana bir asosiy manbaasi bu ularning jamiyatning turli qatlamlari bilan ko'p muloqot qilishi, rahbariyat va o'z jamosining qo'llovi hamda akademik yutuqlardan foydalanishidan kelib chiqadi.

Yoshlar liderligini shakllantirishning bu usulidan kattalar jamosi har doim ham foylanishga imkoniyat qoldirmaydi. Bu esa "tabiiy lider"lik xususiyatiga ega bo'lmagan yoshlarning yetakchilik mahoratini oshirishga to'sqinlik qiladi.

Liderlikni shakllantirishning bu usuli juda eksklyuziv (istisno) bo'lib, yaxshi bilim va qobiliyati ega bo'lsa ham lekin uyatchan bo'lgan yoshlarni liderlik faoliyatiga taklif qilish uchun juda zarurdir. Bu eksklyuziv idrok ko'pincha o'zlarining yetakchilik salohiyatiga ishonmaydigan yoshlarni liderlik qobiliyatlarini ochib beradi. Yetakchilik modellaridan umuman xabardor bo'lmagan yoshlar ko'pincha liderlarni rasmiy rahbarlik lavozimlariga ega bo'lgan shaxslar deb bilishadi. Ushbu eksklyuziv fikrlash orqali bu toifa yoshlar o'zlarini rasmiy rahbarlarga bo'ysunuvchi deb hisoblashadi. Bu qarash egalari shuningdek, liderlikning tabiiy yetakchilik xususiyatlari bilan tug'ilgan shaxs sifatida stereotipik qo'llab-quvvatlaydi.

Hozirgi vaqtda jahon miqyosida yetakchilik amaliyotiga bo'lgan ishonch inqirozi va tashvishlari tufayli yoshlar yetakchiligini rivojlantirishda dolzarblik hissi mavjud. Liderlik inqirozi barchani inson hayotining har bir bosqichida yetakchilikni rivojlantirishga e'tibor qaratishga va yoshlarning liderlik salohiyatini rivojlantirishda ochiq bo'lishga chaqiradi. Yoshlar yetakchiligini shakllantirish dasturlarning asosiy vazifalaridan biri bu potensial liderlarni izlash maqsadida, odatdagi "yaxshi" yoshlar populyatsiyasidan tashqari turli xil qobiliyat egalari bo'lgan yoshlarni topishdan iborat. Yoshlar yetakchiligini rivojlantirish dasturlari, "tabiiy lider" sifatida ko'rilmaydigan iqtidor va bilimga ega bo'lgan uyatchanlik yoki jismoiy va fizik kamchiligi sabab o'zini lider sifatida umuman tasavvur ham qilmagan yoshlarni yetakchilik qobiliyatini shakllantirish va tarbiyalash uchun zarur hisoblanadi.

Juda ko'p yoshlarimiz o'z fikrini qat'iy bildirish va jamiyat kamchiliklarini bayon qilishda irodasizlik ko'rsatishadi yoki bu ishlarni muhokama qilishga o'zini mas'ul emas deb bilishadi. Xo'sh buning sababi nimada?

Birinchidan, kattalarning turli muammolar bo'yicha yoshlarning o'z fikrini bildirishga monelik qilishi, ya'ni ularni yoshligini ro'kach qilib fikr bildirishiga imkon bermasligi;

Ikkinchidan, kattalar va yoshlar fikrlarining nomutanosibligi. Jumladan yoshlarning mavjud muammoga to'g'ri yechim topish bo'yicha bildirgan fikri kattalarning muammoga nisbatan noto'g'ri yondashuvi oldida cheklanadi;

Uchinchidan, muammoga yechim topgan va qat'iy fikrlashga qodir bo'lgan yoshlarning kamdan kam hollarda kuch va hokimiyat imtiyoziga ega bo'lishi.

Shu illatlar sababli ko'pgina toza fikrli yoshlar o'z qarashlarini bildirishga kattalar va rahbarlar tomonidan cheklovlar mavjudligini hisobga olib o'z fikrlarini boshqalar bilan baham ko'rishni istamaydi. Kattalar va yoshlar o'rtasidagi kuch-qudratni tenglashtirish yoshlarga jamiyat tuyg'usini shakllantirishga teng ishtirok etish imkonini yaratib beradi.

Yoshlar yetakchiligini rivojlantirishda maksimal samaraga erishish uchun quyidagi usullardan keng foydalanish lozim:

1. Ta'lim va treninglar

Ta'lim dasturlari yaratish va liderlik treninglarini o'tkazishni ta'minlash.

Bunda yoshlarning muloqot ko'nikmalari rivojlanadi, vaqtni o'zlari boshqaradi hamda qaror qabul qilish va boshqa asosiy vakolatlari oshadi.

2. Lider-murabbiy tarbiyasini olish

Tajribali liderlarning murabbiy sifatida yoshlar bilan ish olib borishi, ularga liderlik mahorati bo'yicha tajriba va bilimlarini o'rgatish.

Lider-murabiy tarbiyasi yoshlarning shaxsiy va professional yetakchilik qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

3. Mustaqil loyihalar va tashabbuslar:

Yoshlarning tashabbus va loyihalarini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish.

Turli loyiha va dasturlarni mustaqil rejalashtirish va amalga oshirishda kattalar bilan teng huquqlilik asosida hamkorlikda ishtirok etish liderlik qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

4. Jamoat va siyosiy hayotdagi ishtiroki:

Yoshlarning mamlakat ijtimoiy va siyosiy hayotida faol ishtirok etishini rag'batlantirish.

Bunda yoshlarning davlat va jamoat tashkilotlari, hokimiyat boshqaruv organlari va boshqa turli tuzilmalarda ishtirok etish imkoniyati kengayadi.

5. Texnologiya va innovatsiyalar:

Yoshlarning e'tiborini jalb qilish va faol ishtirokini ta'minlashda zamonaviy texnologiyalar va innovatsiyalardan foydalanish.

Bu orqali yoshlarning o'zaro fikr almashishi va faoliyatni muvofiqlashtirish uchun raqamli platformalar yaratish ular uchun keng imkoniyatlar eshigini ochib beradi.

6. Sport va madaniyat:

Yoshlarni sport va madaniy tadbirlarga jalb etish.

Uyatchan va kamchiligi bor yoshlarni liderlik fazilatlarini aniqlash va rivojlantirish uchun ular uchun turli sport o'yinlari, tanlovlar, festivallar va kontsertlar tashkil etish.

7. Ijtimoiy javobgarlik:

Ijtimoiy mas'uliyat bo'yicha tadbirlar va loyihalarni amalga oshirish.

Jamoat ishlarida yoshlarning faol ishtirok etishi, muhtojlarga yordam berish, ko'ngilli tadbirlarni amalga oshirish liderlik fazilatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

8. Fuqarolik ta'limi:

Fuqarolik huquqlari va majburiyatlari haqida bilim berish.

Bu orqali yoshlarni ijtimoiy tuzumda faol ishtirok etishi o'rgatiladi.

Shunday qilib, yoshlar liderligi innovatsiyalar, ijtimoiy faollik va ijobiy o'zgarishlarni rag'batlantirish orqali jamiyat taraqqiyotida muhim rol o'ynaydi. Yoshlar yetakchiligini rivojlantirishning asosiy usullariga ta'lim, murabbiylik, mustaqil loyihalar, ijtimoiy-siyosiy hayotda ishtirok etish, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, sport va madaniy tadbirlar, ijtimoiy mas'uliyat va fuqarolik tarbiyasi kiradi.

Yoshlar liderligi nafaqat shaxsiy yetakchilik ko'nikmalarini rivojlantiradi, balki ularning fuqarolik faolligi va mas'uliyatini oshiradi. Yosh liderlar ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy muammolarni hal etishga hissa qo'shishi, jamiytdagi ijobiy o'zgarishlarning harakatlantiruvchi kuchiga aylanishi mumkin.

Yoshlar yetakchiligining muvaffaqiyatli rivojlanishi ta'lim, davlat,

jamoat tashkilotlari va kattalar jamoasi tomonidan qo'llab-quvvatlash va sarmoya kiritishni talab qiladi. Ular yoshlarning o'z salohiyatini yuzaga chiqarishi, yetakchilik qobiliyatini amaliyotda qo'llashi uchun sharoit va imkoniyatlar yaratishi kerak. Yoshlar liderligi – jamiyatning barqaror rivojlanishiga, liderlarning yangi avlodini shakllantirishga xizmat qiluvchi kelajak sarmoyasidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Яхонтова Е. С. Эффективность управленческого лидерства. М. 2012.
2. Прыгин Б.Д. Руководство и лидерство. М. 1973.
3. Александр П.А Ланцев, М.К. Лидерство в молодежной среде. Екатеринбург. 2020.
4. Gottfried, A.E., Gottfried, A.W., Reichard, R.J., Guerin, D.W. Motivational roots of leadership: A longitudinal study from childhood through adulthood. The Leadership Quarterly/

file:///C:/Users/User/Downloads/Motivational_roots_of_leadership_A_longi%20(1).pdf.

5. Victoria Sherif. Modeling Youth Leadership: An Integration of Personality Development Theories and Ethics/journalofleadershiped.org/wp-content/uploads/2019/04/18_2_sherif.pdf.

6. Mortensen, J., Lichty, L., Foster-Fishman, P., Harfst, S., Warsinske, K., & Abdullah, K. (2014). Leadership through a youth lens: Understanding youth conceptualizations of leadership. *Journal of Community Psychology*, 42(4), 447-462.